



“Alisher Navoiy va XXI asr”

8-ULUSLARARO KONFERANSI MATERIALLARI

Toshkent-Boku, 2023-yil 6-7-fevral

“Əlişir Nəvai və XXI əsr”


8-ci BEYNƏLXALQ KONFRANS MATERIALLARI

Daşkənd-Bakı, 6-7 fevral 2023-cü il

“Alisher Navo'i and the 21st century”

8th INTERNATIONAL CONFERENCE PROCEEDINGS

Tashkent-Baku, February 6-7, 2023



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

**Ozarbayjon Milliy Ilmlar Akademiyasi
Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot Instituti**

**«ALISHER NAVOIY VA
XXI ASR»**

mavzusidagi uluslararo konferansi materiallari

Toshkent – Boku – 2023

UO‘K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50‘)

A 51

Mas’ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, professor

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Isa HABIBBEYLI,

akademik,

Ozarbayjon Milliy Ilmlar Akademiyasi prezidenti
Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot Instituti bosh direktori

Tahrir hay’ati:

Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Vahit Turk (Turkiya), Teymur Kerimli (Ozarbayjon), Muslihiddin Muhiddinov (O‘zbekiston), Nushoba Arasli (Ozarbayjon), Nurboy Jabborov (O‘zbekiston), Ramiz Asker (Ozarbayjon), Tanju Oral Seyhan (Turkiya), Pasha Kerimov (Ozarbayjon), Yashar Qosimov (Ozarbayjon), Sirojiddin Hoji (Ozarbayjon), Karomat Mullaxo‘jayeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Gulbahor Ashurova (O‘zbekiston), Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Nodirbek Jo‘raqo‘ziyev (O‘zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O‘zbekiston)

Ushbu to‘plamda “Alisher Navoiy va XXI asr” mavzusidagi uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To‘plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o‘rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog‘liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o‘rin olgan. O‘zbek navoiyshunosligining bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

HAMID ARASLINING NAVOIYSHUNOSLIK FAOLIYATI

Ozoda TOJIBOYEVA

PhD. (O'zbekiston)

Annotatsiya

Mazkur maqolada ozar olimi Hamid Araslining navoiyshunoslikka qo'shgan hissasi yoritilgan. Navoiy tavalludiga bag'ishlangan konferensiyalardagi ishtiroki ko'rsatilgan. "O'zbek tili va adabiyoti", "Adabiy meros" jurnallarida e'lon qilingan maqolalari kuzatilib, olimning "Navoiy va Ozarbayjon adabiyoti", "Navoiy merosini o'rganish tarixidan" kabi maqolalari tahlil qilingan. H.Arasli tadqiqotlaridagi muhim dalillar, ma'lumotlarning ilmiy qimmatini dalillangan.

Kalit so'zlar: *adabiy ta'sir, adabiy aloqalar, tazkirachilik, an'ana va o'ziga xoslik.*

Annotation

This article describes the contribution of Azeri scientist Hamid Arasli to Navoi studies. His participation in conferences dedicated to the birth of Navoi is indicated. His articles, which published in the journals "Uzbek language and literature", "Literary heritage" were observed, such articles as "Navoi and Azerbaijani literature", "History of studying Navoi heritage" were analyzed. Important evidence and the scientific value of H. Arasli's research is proved.

Key words: *literary influence, literary connection, narrative, tradition and originality.*

Qadim tarixga, boy an'ana va tajriba ega bo'lgan Sharq xalqlari adabiyotida kechgan ijodiy ta'sir mahsullari o'z davri adabiyotini boyitgani, millat tarixida yuksalish yasagani yaxshi ma'lum. Bu borada qarindoshlik aloqalari bilan bog'lanib ketgan ozarbayjon va o'zbek adabiyotida kechgan uzoq asrlik aloqalar, adabiy ta'sir jarayonini o'rganish ham muhim hisoblanadi.

Alisher Navoiy asarlari millat, zamon, makon tanlamaydi. O'z davridan boshlab qo'shni qardosh xalqlar o'rtasida keng yoyilgan, o'sha xalqlarning adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatishi barobarida xalqlar o'rtasidagi do'stlik, adabiy-madaniy aloqalarni ham mustahkamlashga xizmat qilib kelgan. Ozarbayjon shoirlari va Alisher Navoiy ijodini qiyosiy o'rganib, "Alisher Navoiy va ozarbayjon adabiyoti" muammosiga amaliy hissa qo'shgan fidokor olim Hamid Arasli navoiyshunos olimlarning sarkorlaridan biridir. Garchi bugun ozarbayjon va o'zbek adabiy aloqalari bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilgan hamda oshirilayotgan bo'lsa-da, olimning mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlari o'z davri uchun mutlaqo yangilik edi va hozirga qadar ham o'z ilmiy qimmatini yo'qotgan emas.

Filologiya fanlari doktori, akademik, Ozarbayjon yozuvchilar uyushmasining muxbir a'zosi Hamid Arasli uzoq yillik ilmiy faoliyatini Ozarbayjon mumtoz adabiyoti namoyandalari – Hoqoniy, Nizomiy, Nasimiy, Fuzuliy, Tabriziy kabi ko'plab adiblarning ijodini o'rganishga bag'ishladi. "Nizomiy asarlarida xalq ibora va maqollari", "Nizomiy lirikasi", "Nizomiy va folklor", "Ulug' ozarbayjon shoiri Fuzuliy" nomli tadqiqotlari fan rivojida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Birlamchi manbalar asosida "Kitobi Dada Qo'rqu" kitobining ilmiy-tanqidiy matnini yaratgan. "Ozarbayjon adabiyoti tarixining qisqacha ocherki" kitobi muallifi Hamid Arasli ijodkorlarning yangi qo'lyozma manbalarini o'rganish va iste'molga olib kirishda ham katta jonbozlik ko'rsatgan. Qadimdan adabiy aloqalarda hammaslak bo'lib, uzviy rivojlanib kelgan Sharq xalqlari og'zaki va yozma

adabiyotini chuqur bilish va tahlil qila olish salohiyati dunyo miqyosidagi zalvorli olim bo'lib yetishishiga yetaklagan asosiy omildir.

H.Araslining ilmiy faoliyati sahifalarida Alisher Navoiy va ozarbayjon adabiyoti masalasi katta qismni tashkil etadi. "Navoiy merosini o'rganish tarixidan" nomli maqolasida bergan ma'lumotiga ko'ra 1940-yildan boshlab mazkur mavzudagi ma'ruza va maqolalari har ikki davlat matbuotlarida e'lon qilib borilgan. Alisher Navoiy ijodi va shaxsiyatiga bo'lgan muhabbat rishtalari olimni O'zbekiston bilan doimiy aloqaga chorlagan. O'z navbatida hamkorlik natijasida Hamid Arasli O'zbekistonning V.Zohidov, V.Abdullayev, Oybek, G'afur G'ulom, H.Sulaymondek zabardast olimlari qatorida turib navoiyshunoslikka munosib ulush qo'shdi. O'zbek olimlari bilan hamkorlik qildi, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot institutlari hayotida teng ishtirok etdi. Yangi manbalar asosida, chuqur tahlil qilingan maqolalari orqali Alisher Navoiy ijodi qirralarini o'zbek hamda ozar xalqiga oshkor etib bordi. Dunyo kutubxonalarida saqlanayotgan Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro asarlarining qo'lyozma manbalarini o'rgandi, ayrim taxminiy fikrlarga izlanishlari asosida aniqlik kiritdi.

Hamid Arasli O'zbekistonda Alisher Navoiy tavalludi arafasida bo'lib o'tgan konferensiyalarning doimiy ishtirokchisi bo'lib kelgan, shaxsan tashrif buyurib, ilmiy jihatdan yangi maqolalari bilan qatnashgan⁴⁴. Shu o'rinda ularda olimning ishtiroki, ma'ruzaning dolzarbligiga e'tibor qaratsak:

Olim 1961-yil Navoiy tavalludining 520 yilligi munosabati bilan O'zR FA til va adabiyot institutida bo'lib o'tgan konferensiyada Nizomiy va xalq og'zaki ijodi masalasi bo'yicha ma'ruza qilib, unda Nizomiy "Xamsa" dostonlarini yaratishda turkiy xalqlar og'zaki ijodidan foydalanganini e'tirof etadi.

1962-yili bo'lib o'tgan an'anaviy VI konferensiyada Hamid Arasli "Alisher Navoiy va Kishvari" mavzusida ma'ruza qiladi. Ma'ruzaning ilmiy qimmatini shundaki, o'sha yillarda yangi topilgan Kishvari devonida Navoiy g'azaliga bog'langan 5ta muxammas borligini ilk marotaba ilm-fan ahliga ma'lum qilgan edi.

1966-yili 10-12-fevral kunlari O'zR FA Til va adabiyot institutida bo'lib o'tgan an'anaviy X ilmiy anjumanda kirish so'zni G'afur G'ulom ochib bergandan so'ng Oybekning nutqini o'qib berishadi. So'ngra Hamid Arasli Sulton Ali Mashhadiy tomonidan ko'chirilgan Husayn Boyqaro devonining 6 ta qo'lyozma nusxasi Istanbul, London, Parij va yurtimizda saqlanayotganini aytib, ularda Navoiy bilan Husayn Boyqaro o'rtasidagi munosabatlarni yorituvchi muhim faktlar borligini qayd etadi (Mazkur maqola shu yili "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining 3-sonida e'lon qilingan).

1967-yili V.Zohidov boshchilik qilgan XI ilmiy konferensiyada Hamid Arasli Navoiy asarlarining ilk tarjimalari haqida fikr yuritadi.

1968-yil navoiyshunoslarning an'anaviy XII konferensiyasi Samarqand shahrida bo'lib o'tgan. Navoiy tavalludining 525 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilish bir necha kun davom etadi. 13-fevral kuni Samarqand davlat universitetida bo'lib o'tgan asosiy yalpi majlisda H.Arasli "Gul" dostonining turkcha varianti va bu dostoniga Navoiyning munosabati haqida ma'ruza qiladi. Yozma adabiyotdagi "Gul va Alisher" dostonida

⁴⁴ "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining "Ilmiy hayot" ruknida ilova qilingan axborotnomalardan foydalanildi.

yoritilgan shoirning ma'naviy qiyofasi, fojiali muhabbati va qator fazilatlarini haqida fikr yuritadi.

1969-yili Hamid Araslining 60 yoshga to'lishi munosabati bilan Abduqodir Hayitmetovning olim haqida maxsus maqolasi e'lon qilingan (9, 75-77).

1971-yil Navoiy tavalludining 530 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan XV an'anaviy konferensiyada Hamid Arasli "Nasimiy va Navoiy" mavzusida ma'ruza qiladi. Ozarbayjon shoiri Nasimiy Shirvoniya Navoiyning munosabati borasida fikr yuritadi. Navoiy "Majolis un-nafois", "Holoti Pahlavoni Muhammad" asarlarida Nasimiyga yuksak baho berganini ta'kidlaydi.

Olimning mazkur ma'ruzalari doirasidagi ilmiy maqolalari har ikki davlat matbuotida e'lon qilinib borilgan. Jumladan, Alisher Navoiy va ozarbayjon adabiyoti tadqiqiga bag'ishlangan maqolalari "Adabiy meros", "O'zbek tili va adabiyoti" jurnallarining 1960-80-yillardagi sonlaridan o'rin olgan.

Milliy adabiyotga – umumturkiy tilli adabiyotlarga bo'lgan qiziqish, intilish, ularni umrining mazmuni deb bilish olimni fundamental tadqiqotlar sari yetaklagan. Birlamchi manbalar ustida ishlash, ularni tahlil qilish jarayoni matn osti kengliklarini chuqurroq anglash, qiyoslash imkoniyatini beradi. Bu borada olimning ilmiy kuzatishlari fundamental asosga egaligi bilan alohida ahamiyatga ega. Ilmiy bayon usulidagi aniqlik, asl manbalar bilan ishlash tajribasi, jumladan, to'liq mag'zga boy ma'lumot o'z davridagi zamondosh olimlar uslubiga ham xos xususiyat. Jumladan, yirik olimlar Hamid Sulaymon, A.Hayitmetov, A.Abdug'afurov, Y.Is'hoqov ilmiy kuzatishlaridagi har bitta jumla ana shunday tugal ilmiylik kasb etadi. Bir kichik maqolaning ham fundamental asosga ega ekanligi, chuqur tahlillar bilan dalillangani, ayniqsa, xalqaro miqyosdagi manbalarni kuzatib, muhim umumlashmalar chiqargani olimning har bitta maqolani yozishdan oldin chuqur izlanishlar olib borganini ko'rsatib turadi.

Hamid Arasli tomonidan e'lon qilingan "Navoiy merosini o'rganish tarixidan", "Ahdiy Bag'dodiy Navoiy haqida", "Navoiy va ozarbayjon adabiyoti" mavzusidagi maqolalari ayni qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiy ta'sir masalalarini o'rganishga qaratilgan muhim tadqiqotlar sirasiga kiradi. Jumladan, "Navoiy merosini o'rganish tarixidan" nomli maqolasida olim Navoiy ijodiy merosining ozarbayjon, rus va turk olimlari tomonidan o'rganilishiga e'tibor qaratadi va kirish qismida o'z fikrlarini dalillab ko'rsatadi: "Navoiy merosini o'rganish yolg'iz o'zbek olimlarininggina vazifasi emas. Navoiy buyuk bir adabiy maktab boshlig'i sifatida, Nizomiy kabi, bir necha xalqlarning adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatganligidan uning ijodini o'rganish ham keng bir sohani tashkil etadi. ... Chunki Navoiy tojik, eron, hind madaniyatida buyuk bir madaniyat homiysi sifatida mashhur bo'lsa, ozarbayjon, turkman, qozoq, tatar, turk, qoraqalpoq xalqlari adabiyotida esa o'zining kuchli ta'siri bilan mashhurdir, shu tufayli ham ular Navoiyini o'rganadilar" (3, 3).

Fuzuliy ijodi tavakkulida Navoiy ijodining ta'siri muhim bo'lganini ta'kidlar ekan, aynan ozarbayjon adabiyotida tazkirachilik ham Navoiydan ibrat, ta'sirlanish natijasida yuzaga kelganini faxr bilan yozadi. Sodiqbey Afshorning 1508 yilda yozilgan "Majma ul-xavos" tazkirasi Navoiy tazkirasi asosida yozilganini tasdiqlash maqsadida qo'lyozma muqaddimasidan parcha keltiradi. Maqolada aniq, keng ko'lamli masalalar ilgari suriladi:

1. Kishvariyning Navoiy bilan ijodiy aloqada bo'lgani.
2. Fuzuliy adabiy maktabi tavakkulida Navoiy ijodining muhim rol o'ynagani.

3. Sodiqbey Afshorning “Majmaul havas” tazkirasi “Majolis un-nafois” ta’sirida yozilgani.

4. Rus olimlarining Navoiy ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlari tavsifi.

5. Turkiya kutubxonalaridagi Navoiy qo‘lyozmalari, ularning qadimiyligi va Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda ulardan foydalanish zarurati.

Maqolada olim faqatgina ozarbayjon adabiyotiga Navoiy ijodining ta’siri, o‘rni bilan cheklanib qolmaydi, balki Navoiy ijodini o‘rganishga bel bog‘lagan o‘zbek olimlari bilan teng mas’uliyatga ega olim sifatida tadqiq etadi. Jumladan, Ogah Sirri Lavand hijriy 1325-yili Toshkentda Navoiyga nisbat berib nashr etilgan “Nazmi aqoid” nomli asarning Navoiyga tegishli emasligi haqida maqola yozgani, Hodi Zarif ham o‘z chiqishlaridan birida mazkur fikrni ma’qullaganini aytadi. “Ammo matbuotimizda hali shu vaqtga qadar asar haqida biror maqola chiqarmadik”, deya olim Navoiy ijodini o‘rganishda o‘zbek olimlari qatorida teng mas’uliyatga ega ekanini ta’kidlaydi (3, 6).

Turkiyada topilgan “Sab’at abhur” kitobi muallifini aniqlashga qaratilgan tahliliy ma’lumotlar o‘z davri, hattoki bugun mazkur lug‘at tarixi haqida ma’lumot olishni istagan har qanday tadqiqotchi uchun ham qimmatli dalillar hisoblanadi. Damashq podshosi Navoiy o‘z qo‘li bilan ko‘chirgan lug‘atni yo‘qolib ketmasligi uchun kotib Al Maniniyga buyurgani va kotib kitobga muqaddima va so‘ngsiz yozgani, asar haqida maqola yozgan Ahmad Otash uni Oqhisorlik Abduljalil ibn Yusufga oidligini isbotlashga harakat qilganini bayon etadi. Olim Ahmad Otash bildirgan ma’lumotlar asossiz ekanini chuqur tahlillar asosida dalillaydi va asarning noma’lum bo‘lib kelayotganini shunday izohlaydi: “Navoiy bu asarni umrining oxirlarida yozishga kirishgan bo‘lib, hali uni tamomlamay vafot etgan. Shoirning qo‘lyozmasi oqqa ko‘chirilmay, hali Hirot va O‘rta Osiyoda ma’lum bo‘lmadanoq, qandaydir yo‘l bilan mamlakatdan tashqariga chiqqan va nihoyat XVII asrda Usmon pashaning xazinasiga kirgan. Bu pasha Navoiyga hurmat yuzasidan, asar yo‘qolib ketmasin deb, o‘z zamonining ko‘zga ko‘ringan olimlaridan Al Maniniyni chaqirtirib, asarni unga ko‘chirtirgan. Agar shunday bo‘lmaganda edi, tanilgan arab olimlaridan Al Murodiyning “Silkud durar” nomli asarida Al Maniniydek buyuk olim Mir Alisher Navoiyning “Sab’at abhur” nomli kitobi Shom voliysi va Haj amiri Usmon pasha uchun to‘planganligini va nusxa ko‘chirilganligini hamda unga muqaddima yozganligini aytmagan bo‘lur edi” (3, 7).

“Sab’at abhur”ning Navoiyga tegishli ekani haqidagi ilk fikr Ogah Sirri Lavandga tegishli bo‘lsa-da, bir yildan keyin Ahmad Otash tomonidan e’lon qilingan inkor etuvchi maqola ham bahslarga sabab bo‘lgan edi. Natan Mallaevning e’tiroficha: “professor Hamid Arasli bu maqolalarni qiyosiy o‘rganib, “Sab’at abhur” Navoiyga mansub degan qarorga keldi”, deb oxirgi hal qiluvchi xulosaviy fikr Hamid Arasliga tegishli ekanligini tasdiqlaydi (5, 379).

Hamid Arasli turkigo‘y shoirlardan faqat Navoiygina bu ishni bajarishi mumkinligini aytadi. Mazkur mulohazalar Navoiyning xoriydagi manbalarini ilmiy iste’molga olib kirish borasida ham dolzarb edi. Qolaversa, Navoiy ijodining o‘rganilish tarixiga muhim hissa bo‘lib qo‘shiladi.

H.Arasli tomonidan 1966-yili “Husayn Boyqaro risolasi haqida” nomli maqola va asarning to‘liq matni e’lon qilinadi (2, 6-13). Olimning mazkur so‘zboshi o‘rnida tushuntirish berilgan kichik maqolasida ham ayni e’tirofga loyiq xizmatlari yaqqol aks etgan. Husayn Boyqaro adabiy merosi nashrlarini kuzatib, she’rlaridan namunalari 1926-yil

Bokuda nashr etilgani, 1928-yil Fitrat majmuasiga, 1948-yil Hodi Zarif tayyorlagan “Navoiy zamondoshlari” kitobiga kiritilganini aytadi. Keyingi vaqtlardagi tadqiqotlarda “Majolis ul-ushshoq” nomli asari borligi aytilayotgani, biroq Bobur bu asarni Kamoliddin Husayn qalamiga mansub deb bildirib o‘tganini yozadi.

Olim Husayn Boyqaro risolasini 1945-yilda Ismoil Hikmat tomonidan e’lon qilingan foto surat asosida nashrga tayyorlaydi. “Asli Omosiyada saqlangan bu risola turk professorining bergan ma’lumotiga ko’ra, Navoiyning “Xamsat ul-mutahayyirin” asari bilan bir muqovada bo’lganidan, kutubxonada Navoiy asari nomi bilan qayd etilgan”ini aytib, “Muhokamat ul-lug’atayn”da Navoiy Husayn Boyqaroning risolasi haqida so’zlaganini aniqladik, deydi olim (2, 6). Asar Porso Shamsiev yordami bilan nashrga tayyorlangan. Jurnalda asar matni to’liq e’lon qilingan. Asar matni oldidan berilgan ushbu bir yarim sahifalik ma’lumot ham muhim ahamiyatga ega. Manbalarning xalqaro miqyosda tekshirilgani, noaniq fikrlar xolis tahlil qilingani, dalillangani, muhimi har biriga olimning shaxsiy munosabati tadqiqotning qimmatini oshiradi.

“Navoiy va Ozarbayjon adabiyoti” maqolasi ham adabiy ta’sir masalalariga bag’ishlangan muhim tadqiqotdir (1, 3-8). Dastlab ozarbayjon adiblarining Qosim Anvor, Nizomiy Ganjaviy ijodiga mehri tufayli turkiy shoirlar yetila boshlagan bo’lsa, Alisher Navoiy ijodi o’z davridan boshlab ozarbayjon adabiyotiga ta’sir ko’rsata boshlagani, Ozarbayjon yoshlarining Hirot adabiy muhitiga intilishi, Tabriz adabiy muhitining shakllanishida Navoiy ijodining ta’siri kuchli bo’lganini ta’kidlaydi. Ozarbayjon yoshlarining o’z tilida ijod qilishlariga, ozarbayjon milliy adabiyotining yuksalishida Navoiyning ta’siri kuchli bo’lgani haqidagi fikrlar qardosh millat vakili tomonidan berilgan eng yuksak e’tirofdir.

Umuman olganda, Hamid Araslining o’zbek adabiyoti tarixi, navoiyshunoslik oldidagi xizmatlari katta. Bir-biridan suv ichgan ikki xalqning shaklan, mazmunan hamohang adabiyotini o’rganish borasidagi faoliyati keng va samarali kechgan. Zalvorli, fan uchun dolzarb, muhim ahamiyatga ega masalalarni ko’tarib chiqdi, bahsli masalalarda aniqlikka intildi, xolis baho berdi. Navoiyshunoslikni yangi, toza ma’lumotlar bilan boyitdi. Alisher Navoiyning Nizomiy Ganjaviy an’anasiga ergashgani va o’z navbatida ozarbayjon adabiyoti tavakkulida Navoiy ijodining beqiyos bo’lganini ilmiy tadqiqotlari orqali yoritdi. O’zbek va ozarbayjon adabiyotini qiyosiy o’rganish yo’lidagi muhim vazifalarni bajardi, bu yo’nalishdagi tadqiqotlar ko’lamini boyitdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арасли Ҳамид. Навоий ва озарбайжон адабиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1968. 3-сон. – Б. 43-43.
2. Арасли Ҳамид. Ҳусайн Бойқаро рисоласи ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1966. 3-сон. – Б. 6-13.
3. Арасли Ҳамид. Навоий меросини ўрганиш тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 1960. 3-сон. – Б. 3-8.
4. Арасли Ҳамид. Ахдий Бағдодий Навоий ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1977. 4-сон. – Б. 43-47.
5. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976.
6. Муҳаммадхўжаев Ҳ. Алишер Навоий ва озарбайжон адабиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1972. 2-сон. – Б. 22-29.

7. Нагиева Жаннат. Навоий ижодининг Озарбайжонда ўрганилиши // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1973. 5-сон. – Б. 56-59.
8. Эркинов А., Жабборов Р. Навоий шеърлари “Султон Яъқуб сайланмаси”да / Алишер Навоий ва XXI аср: халқаро илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент, 2018. – Б. 36-41.
9. Ҳайитметов А. Ҳамид Арасли // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1969. 2-сон. – Б. 75-77.

TURKIY QOFIYANING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (Navoiy ijodi misolida)

Orzigul HAMROYEVA
f.f.d., dots. (O‘zbekiston)

Annotatsiya

Poetika ilmining bilimdoni Alisher Navoiy turkiy til imkoniyati nafaqat g‘oyada, balki shaklda ham keng ekanligini asosli ravishda isbotlab bera olgan ijodkordir. Xususan shoirning lirik merosi, unda aks etgan poetik unsurlarning mukammal amaliy tatbig‘i buning yorqin dalilidir. Maqolada turkiy qofiya va uning o‘ziga xos xususiyatlari, arab va fors qofiyasidan farqli va keng imkoniyatlari shoir ijodiyoti misolida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: *qofiya, radif, qofiya harflari, qofiya harakatlari, qofiya turlari, mutrodif, mutakovis, xuruj, mazid, vasl.*

Annotation

Alisher Navoi, a scholar of poetics, is a creator who proved that the possibilities of the Turkish language are wide not only in terms of thought, but also in terms of form. Especially the lyrical heritage of the poet, the perfect application of the poetic elements reflected in it to practical life is a clear proof of this. In the article, the Turkish rhyme and its specific features, different and wide possibilities from the Arabic and Persian rhyme are studied on the example of the poet's work.

Key words: *rhyme, radif, rhyme letters, rhyme movements, rhyme types, mutrodif, mutakovis, khuruj, mazid, vasl.*

Temuriylar davridagi poetikaga oid risolalar ikki: fors va turkiy tilda parallel ravishda yaratildi. Tabiiyki, risolalardagi bu ikki tillilik forsiy va turkiy qofiyashunoslikning o‘ziga xos xususiyatlarini asos qilib oldi, til qonuniyatidan kelib chiqqan holda o‘ziga xos nazariyalarni taqdim qildi. Bu jihatdan ilk va mukammal manba sifatida turkiy qofiyashunoslik uchun Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a” asari asos manba sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda temuriylar davridagi bir qancha asarlarda turkiy qofiya maxsus tadqiq etilmasa-da, ularda muallifning she‘r ilmi, xususan, turkiy qofiya ilmiga oid ilmiy-nazariy qarashlari aks etgan. Masalan, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon”, Z.M.Boburning “Muxtasar” asarlarida vaznlar izohi qismida qofiyaga oid ilmiy-nazariy qarashlar keltiriladi. Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarida taqti’ va ularning talaffuz bilan bog‘liq holatlari, ruknlarning tarkib topishi va misra va baytdagi o‘rni masalasi aks etgan o‘rinlarida qofiya harakatlari va raviy harfi xususida to‘xtalinadi. Turkiy qofiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilashda Alisher Navoiy lirikasi muhim ahamiyat

ситуации)	
Gaybullah BABAYAR. Kaşgarlı Mahmud ve Nevaî eserlerinde geçen bazı sözcüklerin özbek ve azerbayca türkçelerinde korunması üzerine	349
Mübariz AĞALARLI. Əmir Əlişir Nəvai dövründə azərbaycan dövlətləri ilə teymurilər dövləti arasında siyasi və diplomatik münasibətlər	356
Nazmiya MUXITDINOVA. Navoiy va Huvaydo ijodida voqe'band g'azallar talqini	362
Murodxoja MUXTOROV. Navoiy lirikasidagi musiqiy istilohlarning bayt mazmuni bilan uyg'unligi	367
Zilola AMONOVA. Nasimiy va Navoiy ijodida jamol vasfi	372
Ma'rifat RAJABOVA. Navoiy ijodida paremiologik janrlar stilizatsiyasi	377
Tohir XO'JAYEV. Navoiyning g'azallarida so'z qo'llashdagi badiiy mahoratiga doir	383
Tozagul MATYOQUBOVA. Navoiyga ehtirom	387
Gulbahor ASHUROVA. Mustaqillik davri o'zbekistonda nizomiyshunoslik va navoiyshunoslikka qo'shilgan hissa	392
Shermuhammad AMONOV. Ahmad Tabibiyning "Tuhfatu-s-sulton" devoni va undagi Navoiy g'azallariga yozilgan muxammaslar	398
Ozoda TOJIBOYEVA. Hamid Araslining navoiyshunoslik faoliyati	405
Orzigul HAMROYEVA. Turkiy qofiyaning o'ziga xos xususiyatları (Navoiy ijodi misolida)	410
Şəbnəm MİRZƏZADƏ. Almaz Ülvinin nəvaişünaslığa töhfəsi ("Əlişir Nəvainin əsri və nəsrı" (elmi-filoloji və dini-təsəvvüfi əsərləri) monoqrafiyası haqqında)	415
Barno ABDURAHMONOVA, Muqaddas SAIDAKBAROVA. Navoiy ijodida nasriy va nazmiy ifodaning uslubiy jihatlari	422
Sohiba UMAROVA. Alisher Navoiyga izdoshlik va taxmis an'anasi takomili	426
Quvonch EHSONULLO. Amir Alisher Navoiy qabrining qurilish tarixi	430
Zulayho RAHMONOVA. Ibrohim Haqqul – navoiyshunos	433
Yulduz ABDULHAKIMOVA. Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy "Layli va Majnun" dostoni syujet tipologiyasi va o'ziga xosligi	438

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

mavzusidagi uluslararo konferansi materiallari

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquziyeva

Musahhah: M. Yunusova

Sahifalovchi: A. Muhammad

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha